



## O‘ZBEK TILIDA QO‘LLANUVCHI O‘ZLASHMA SOMATIK LEKSEMALARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK TALQINI

**Kenjayeva Zahro Suyunovna,**

*QarDU o‘qituvchisi*

[zahrokenjayeva607@gmail.com](mailto:zahrokenjayeva607@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18699176>

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek tiliga fors-tojik va arab tilidan o‘zlashgan inson tana a‘zolarining leksik-semantik hamda etimologik talqini bayon etilgan. Shuningdek, somatik leksemalarning hozirgi o‘zbek tilidagi pragmatik imkoniyatlari badiiy adabiyot matnlaridan olingan asosida yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** somatik leksema, somema, dinotativ ma‘no, tana, peshana, lab, gardan, jigar, kaft, semema, mimika, polisemantik qiymat, atama, sinonim, chastota.

**Abstract.** The article presents the lexical-semantic and etymological interpretation of the human body parts borrowed from Persian-Tajik and Arabic into the Uzbek language. Also, the pragmatic possibilities of somatic lexemes in the modern Uzbek language are highlighted on the basis of literary texts.

**Key words:** somatic lexeme, someme, denotative meaning, body, forehead, lip, neck, liver, palm, sememe, facial expressions, polysemantic value, term, synonym, frequency.

**Аннотация.** В статье представлена лексико-семантическая и этимологическая интерпретация заимствованных из персидско-таджикского и арабского языков частей человеческого тела в узбекский язык. Также на основе литературных текстов освещены прагматические возможности соматических лексем в современном узбекском языке.

**Ключевые слова:** соматическая лексема, сомема, денотативное значение, тело, лоб, губа, шея, печень, ладонь, семема, выражения лица, полисемантическое значение, термин, синоним, частота.

**Kirish.** Barcha tillarda bo‘lganidek, hozirgi o‘zbek tili ham necha asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida o‘zining zamonaviy tarkibini shakllantirib bo‘ldi. Ammo hozirgi zamonaviy leksik tarkib faqat o‘zbek tilining o‘zigagina xos bo‘lmasdan yoki umumturkiy so‘zlarnigina tashkil etmay, o‘zga fors-tojik, arab va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham uning bag‘rida hamon yashab keladi. Alalxusus, inson tana a‘zolariga oid so‘zlar tarkibi ham ona tilimizning lug‘at zaxirasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, SL (somatik leksemalar)ni ham o‘z va o‘zlashma qatlam doirsida tadqiq etish ularni umumlisoniy qiymatini belgilash muhimligini zohir etadi.

Til leksikasidagi SL ni mana shu jihatdan tarh etganda ular genetik jihatdan ikki manbaga mansubligini ko‘rsatadi:

ichki tarkib jihatdan tilning o‘ziga xos bo‘lgan SLlar;

boshqa tillardan o‘zlashgan SLlar.

Shu boisdan mazkur so‘zlarni: 1) o‘z qatlam va 2) o‘zlashgan qatlamlarga ajratib talqin etish o‘rinli bo‘ladi.



**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarning jamligini– 1969 yilda Moskvaning “Sovetskaya ensiklopediya” nashriyoti “Farhangi zaboni to‘chiki” lug‘atining 2-jildida uchratish mumkin. Bu esa turkiy va eroniy tillarda so‘z qo‘llash parallilizmi azldan mavjudligini ko‘rsatadi. 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa tartib berilgan so‘zlarning etimologik qatlamlari aniq belgilab qo‘yilganligi ayni haqiqat. Shu jihatdan ona tilimizda mavjud so‘zlarning asl etimologik mohiyatini anglashda bu lug‘atning ahamiyati beqiyos.

Mahmud Koshg‘ariyning XI asrda bitilgan “Devonu lug‘otit turk” lug‘ati esa turkiy tillarning, jumladan, o‘zbek tili lug‘at boyligining qadim mohiyatini zamonaviy tilshunoslik hamda hozirgi jonli tilimiz uchun ahamiyatini belgilashda ilk va o‘ta muhim manba manba bo‘lib hisoblanadi. Professor Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”ni tuzganligi shu qadim va lug‘aviy boylikning zamonaviy mohiyatini o‘zbek xalqi yengil va oson anglashini ta‘minlashda behad zarur bo‘lgan leksikografik adabiyot sanaladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada o‘zbek tili lug‘at boyligining rivojlanishida o‘zlashma qatlamga mansub fors-tojikcha va arabcha so‘zlarning formal-semantik va etimologik xususiyatlari tahlil qilindi. Xususan, hind-yevropa tillar oilasining eroniy va somiy tillar guruhiga kiruvchi leksik birliklarning lingvistik qiymatlari oltoy tillar oilasining turkiy turkiy tillar guruhiga kiruvchi o‘zbek tili so‘zlari bilan qiyoslandi. Bu yondashuv ona tilimiz uchun substat maqomiga molik bo‘lgan leksik birliklarning qiymatini belgilash imkoniyatini yuzaga chiqarish uchun xizmat qilishi ma‘lum bo‘ldi. Tipologik tahlil yordamida noqardosh tillarga molik bo‘lgan so‘zlarning formal hamda semantik mavqei taqqoslandi. Bu zamonaviy o‘zbek tili leksikografiyasining ichki strukturasi universal va milliy jihatlarni aniqlashga xizmat qilishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, o‘zlashma somatik nazariy asoslarini dalillash uchun lug‘atlardan, ilmiy tadqiqot manbalaridan foydalanildi.

## **Natijalar va muhokama.**

**I. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan terminlar:** *tana, peshana, lab, gardan, jigar, kaft* va boshqalardan iborat.

O‘zbek tiliga chet tillardan, birinchi navbatda, fors-tojik tili bilan eramizning V–VI asrlaridan boshlab aloqada bo‘lgan, keyinchalik O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida (VII-IX asrlarda) arab tili bilan, mo‘g‘ullar hukmronligi davrida (XIII-XIV asrlarda) mo‘g‘ul tili bilan aloqa qila boshlagan va ulardan kundalik hayot uchun eng zarur bo‘lgan so‘zalni o‘zlashtirgan.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan fors-tojikcha va arabcha so‘zlar o‘zbek tilida ma‘lum davrlarda faol qo‘llanib kelsa-da, keyinchalik ularning o‘rnini o‘zbekcha so‘zlar egallab, o‘zlashgan so‘zlar iste‘moli pasaya boshlagan.

O‘zbek tilida qo‘llangan inson tana a‘zolariga oid leksemalar ko‘p emas, ularning soni quyidagi 6 ta so‘zni tashkil etadi: *tana, peshana, lab, gardan, jigar, kaft*. Fors-tojikcha



SLlar adadining bunchalik chegaralanganligi kundalik hayotda o‘z tiliga xos SL o‘ta faolligida bo‘lsa kerak. O‘zlashma qatlamga xos bunday so‘zlarning turkiy muqobillari ham hozirgi o‘zbek tilida mavjud, biroq ular ancha nafaol leksik birliklarga aylanib ulgurgan.

Chunonchi:

**TANA.** O‘TILda bu atama asosining leksik ma‘nosi aniqlanmagan, faqat ko‘pma‘noliligiga diqqat qaratilgan, xolos. “Farhangi zaboni tojiki”da esa “Tana I daraxt va buta poyasi: II o‘rgimchak to‘rining tori” izohi berilgan. “Badan, jism” ma‘nosi esa *tan* leksemasiga xos deb ta‘rif berilgan:

*Agar xud bimonū ba geti daroz,*

*Zi ranqi tan oyad ba raftan niyoz.*

Firdavsī

Mazmuni:

(Agar uzoq vaqt bir joyda turib qolinsa, tananing og‘rig‘i tufayli yurishga ehtiyoj seziladi,

*Yurish zarurati tananing og‘rig‘idan kelib chiqadi).*[1;21]

O‘zbek tilida *tana* polisemantik so‘z sifatida: 1) gavda, badan, tan; poya; 2) jonivorlarning jismi, jussasi; 3) daraxtning, o‘simlikning tag, poya qismi. 4) 4 tex. turli asbob, mashina va sh. k. ning bo‘laklarini tutib turuvchi qismima‘nolarida qo‘llanadi. Keng ma‘noda butun gavdani ifodalasa, tor ma‘noda gavda, jussaning bir qismi ifoda etiladi.

Mumtoz adabiyotda ham *tana* o‘rnida “tan” qo‘llanganligini ko‘rish mumkin:

*Vujudimda anosir band topmay,*

*Tanim ichra so‘ngak payvand topmay. (FSH, 77)*

**PESHANA.** Bu so‘zga O‘TILda ta‘rif berilmagan, unga monosemantik so‘z sifatida qaralgan.

“Farhangi zaboni tojiki”da esa ko‘pma‘noli so‘z maqomida yondashilib, ikki ma‘nosi bayon etilgan: 1. “Peshona, qoshlar, burun va iyak o‘rtasi”; 2. Majoziy ma‘noda: “iqbol saodat, baxt”[1;28] singari atamaning lug‘aviy ma‘nosi bir qadar to‘g‘ri belgilangan.

O‘zbek tilida ham *pešana* so‘zi polisemantik qiymat kasb etadi.

1. Inson yuzining tepa qismida – sochi bilan qoshi o‘rtasida joylashgan, nisbatan keng va yassi uzv. Misol. *Qo‘chqor bo‘lar qo‘zining peshanasi do‘ng bo‘lur, Og‘a bo‘lar yigitning peshanasi keng bo‘lur.* Maqol.

2. Ko‘chma ma‘noda: taqdir: *Peshanangda borini ko‘rasan.* (So‘zlashuvdan)

DLTda “alin – peshona, manglay”[4:69] tarzida izohlangan. Demak, ko‘rinadiki, peshona so‘zi ona tilimizning keyingi davrlarida qabul qilingan somema hisoblanar ekan.

Alisher Navoiy asarlarida *pešana* so‘zining sinonimi sifatida manglay ko‘p karra takror etiladi. Misol:

*Bu mehr ila manglayin o‘pti,*

*Ul boshig‘a evrulurg‘a qo‘pti.*

(LM, – B. 57)



**LAB.** Fors-tojik tiliga xos bu soʻz ogʻiz boʻshligʻining kirish qismini chegaralab turadigan harakatchan teri burmasi hisoblanadi (Tashqi tomondan teri, ichki tomondan shilliq pardalar bilan qoplangan, uning asosini aylanma joylashgan mimika muskuli tashkil etadi)[9:109]. Turkiycha varianti *dudoq*, ayrim manbalarda *tutagʻ*, “Devonu lugʻotit turk”da *erin*[3;89].

Alisher Navoiy asarlarida *lab* leksemasi behad koʻp karra takrorlangan va shoir itellektining yorqin namunasi boʻlib tilga koʻchganligini koʻrish mumkin. Masalan:

*Лаъли лаби нўиҳанд бўлди,  
Нахли қади сарбаланд бўлди* (LM, – B. 42)

*Tashna lab boʻlma, bahr yoninda,  
Qilma shevan, tarab makoninda.* (SS, – B. 52)

Umuman, Alisher Navoiy ijodida somatik leksemalarning assotsiativ qiymati sohirsuxanlik darajasida yagona bayt bagʻriga muxtasar etilganligi shoirning oʻz ona tili semantik imkoniyatlarini naqadar teran idrok etganligini zohir qiladi.

*Ne tan, ne tanda bosh, ne bosh aro koʻz,  
Ne yuz, ne yuzda lab, ne lab aro soʻz.* (FSh.)

Yaʼni baytdagi 18 soʻzshaklning 9 tasi – deyarli yarmi, somatizmlar boʻlib, ular bir-biri bilan iyerarxik planda tartiblangan hamda oʻzaro semantik aloqadorlikda inson vujudining bunyod boʻlish jarayonini “adam nihonxonasidin vujud koshonasigʻa kelmak” silsilasida bayon etilgan.

**GARDAN.** Inson gavdasining boshi bilan tanasini tutashtiruvchi uzvi. OʻTILda boʻyin; boʻyinning orqa qismi[4:46]. SH.Rahmatullayevning “Bu ot yon tomonga aylan-” maʼnosini anglatadigan tojikcha garonidan feʼlining gardon hozirgi zamon asosiga teng boʻlib (TjRS, 99)... OʻTILda bu otning maʼnosi “boʻyinning orqa qismi” deb izohlangani oʻrinli emas,” deyilsa-da, bu fikr bir qadar tor maʼnoga ega. Masalan: “*Keyin oq koʻylagining gardaniga yopishgan joyi hoʻl boʻladi*” misolida aynan “boʻyinning orqa qismi” maʼnosini bildiradi. “*Uni beshik toʻyisiyam meni gardanimda! Qaysi biriga yetkazay!*” misolida esa maʼno koʻchishi bilan “zimma” semasi yuzaga chiqqan. Demak, bu soʻzning dinotativ maʼnosi “boʻyinning orqa qismi” boʻlib, matn ehtiyojiga koʻra bir necha konnotativ maʼnolarda ham qoʻllana oladi. Aslini olganda, bu forscha soʻz kam isteʼmoli, nafaol hisoblanadi. Oʻzbekcha *boʻyin* oti esa *gardan* bilan mutlaq sinonim sanalmaydi.

**JIGAR.** Insonning ichki aʼzosi. Ovqat hazm qilish uchun oʻt suyuqligini ishlab chiqaradi. Ikki maʼnoda qoʻllanadi: 1. Ichki aʼzo. 2. Koʻchma maʼnoda oʻta yaqin qarindosh. Misollar: 1. *Qarasam, har yelkasiga ikkitadan yigit oʻtirsam bemalol koʻtaradigan, kesilgan jigardek qalin labida moʻylov oʻsgan Parcha opa devor tagida gʻoʻladek oyoqlarini choʻzib bir lagan oshni tizzasiga qoʻyib uryapti.* (Oʻtkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – B. 104). 2. *Ergashali aka yiqilishi bilan oʻn chogʻli hamyurtlari «voy*



*jigarim»lab o'sha tomonga otishdi.* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – B. 203). Sinonimi – *bag'ir.* Qo'llanish chastotasi jigarda ustunlik kasb etadi, bag'irning iste'mol doirasi ancha cheklangan.

**II. Arab tilidan o'zlashgan SLlarga kaft hamda kift terminlari kiradi.**

Arab tili somiy tillar guruhining janubiy tarmog'iga mansub til. Undan hozirgi o'zbek tiliga juda ko'p so'zlar o'tgan. Eski o'zbek tilida, ya'ni Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan umumiy leksemalarning 40 foizi arabcha o'zlashmalarni tashkil etgan. SLlarda milliylik ruhi ustun bo'lganligi sababli bo'lsa kerak, arabcha o'zlashmalarning adadi benihoya past.

**KAFT.** Qo'lning bilak uchidan barmoqlargacha bo'lgan ichki va oyoq panjasining ostki yaxlit qismi. Qo'lning bilak uchidan barmoklarning oxirigacha bo'lgan qismi; panja, shapaloq.

O'zbek tilida “sahn” ma'nosi bilan leksik ma'nosidan ustunlik kasb etadi. 1. *O'ng qo'limning kaftida avval to'rta oppoq, chuqur chiziqcha paydo bo'ldi, o'sha zahoti chiziqchalardan tirqirab qon oqa boshladi.* (O'tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. – B. 9). 2. *Hovli sathi keng bo'lgani bilan kaftdek bo'sh joy yo'q.* (O'tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. – B. 54).

**KIFT.** Gavdaning bo'yindan qo'lgacha bo'lgan qismi; yelka. 2. Kiyimning yelkada turadigan, yelkani qoplaydigan qismi[4:90]. Masalan: *Ko'ylagining oldini yoqavayron qilib yechgan doirakash bir tomonga kift tashlab g'ayrat bilan childirmani savalay boshladi.* (O'tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. – B. 177).

O'zbek tilida o'z lug'aviy ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda “asos”, “tayanch” ma'nolari bilan ham qo'llanadi. *Kiftini keltirmoq. Akang aylangur, kiftini keltirib yubor hazilliyam kiftini keltirasan, — To'lamat mo'ylov yirik-yirik tishlarini ko'rsatib iljaydi.* S. Anorboyev, Oqsoy.

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytganda, o'zbek tili lug'at tarkibining muhim va, ayni paytda, o'ta faol qismi bo'lgan inson tana a'zolarini atovchi leksik birliklarda o'z qatlam so'zlari faol, fors-tojikcha SLlar nofaol, arabcha o'zlashmaga xos SLlar esa kam iste'molli sanaladi. Sababi, somatizmlar paydo bo'lishiga ko'ra qadimiy bo'lib, ularning turkiycha atalishi ayni lisoniy birliklarning boshlang'ich nuqtasida turishi bilan xarakterlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Фарҳанги забони тоҷики. Ҷ-2. – Москва: нашриёти “Советская энциклопедия”, 1969. – 874 с.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Учинчи жилд. Шукрона – Ҳ. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. Н – Тартибли. – 988 б.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. I том. – Б. 53.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
5. Аҳмадов Н. “Шайбонийнома” асари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1991. – 135 б.